



**“BIR KAMA, BIR YO‘L” LOYIHASI O‘ZBEKISTONGA XITOIY
INVESTITSIYALARINI JALB QILISH IMKONIYATI SIFATIDA**

Matyoqubov Matyoqub Marksovich


*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
“Xalqaro huquq” fakulteti, 2 - bosqich talabasi
matyoqub206@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan ilgari surilgan “Bir kamar, bir yo‘l” (Belt and Road Initiative) xalqaro tashabbusining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri va Xitoy investitsiyalarini jalb qilishdagi o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur tashabbusning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy global iqtisodiy tizimdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi geostrategik mavqei, transport-logistika salohiyati va investitsiyaviy jozibadorligi BRI doirasida alohida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Bir kamar, bir yo‘l, Belt and Road Initiative, Xitoy investitsiyalari, O‘zbekiston iqtisodiyoti, xalqaro hamkorlik, infratuzilma, energetika, savdo aloqalari, investitsiyaviy muhit, iqtisodiy modernizatsiya.

XXI asr jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlari tobora jadallashib, jumladan, mamlakatlar o‘rtasida savdo, transport va investitsiyaviy aloqalari yanada rivojlanib bormoqda. Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan ilgari surilayotgan “Bir kamar, bir yo‘l” (Belt and Road Initiative) tashabbusi mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishda strategik dastur sifatida alohida o‘ringa ega. Tashabbusning tarixiy ildiziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Belt va Road Initiative g‘oyasining ildizlari qadimiy Ipak yo‘li tarixiga borib taqaladi. Miloddan avvalgi II asrda Xitoyning Xan sulolasi davrida Xitoy va O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq hamda Yevropa mamlakatlarini bog‘lovchi savdo yo‘li sifatida shakllangan edi. Bu yo‘l orqali nafaqat ipak, ziravorlar yoxud qimmatbaho toshlardan tashqari madaniyat va ilm – fan almashinuvi yuz bergan shu sababli zamonaviy BRI qadimiy “Ipak Yo‘li merosi”ni davom ettirish maqsadida global iqtisodiy va madaniy aloqalar sifatida talqin qilingan. Shunday qilib, dastlab ikki alohida g‘oya sifatida – quruqlikdagi iqtisodiy kamar va dengiz yo‘li – keyinchalik esa birlashib yagona bo‘lgan tashabbus sifatida “Bir kamar, bir yo‘l” deb atala boshlagandir. Ushbu tashabbus 2013- yil sentabr oyida Xitoy Xalq Respublikasi raisi Xi Jinpingning Qozog‘iston Respublikasiga rasmiy tashrifi doirasida e‘lon qilinishiga “Ipak Yo‘li iqtisodiy kamar” konsepsiyasining qabul qilinganligi ushbu loyihaning qabul qilinishiga tamal toshi bo‘lib xizmat qilgan. Oradan bir oy o‘tib, Indoneziyada, Xalq Majlisi sessiyasida Xi Jinping “XXI asr dengiz Ipak yo‘li” tashabbusini ilgari surgan.³⁷ Bu esa dengiz yo‘lini Janubi – Sharqiy Osiyo, Afrika va boshqa mamlakatlar bilan bo‘g‘lovchi yo‘nalishlarga qaratilgan

³⁷ [Belt and Road Portal - BRI Official Website](#)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

edi. Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad hamkor davlatlar bilan siyosiy strategiyalar, infratuzilma rejalari va taraqqiyot yo'nalishlarini birlashtirishga intilish bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuni qo'shimcha sifatida keltirishimiz mumkinki, davlatlar infratuzilmaviy aloqadorligi ya'ni quruqlik va dengiz yo'llari orqali transport, energetika aloqalarini kengaytirish orqali mamlakatlararo bog'lanishni kuchaytirishi mumkinligi keltirib o'tilgan. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston, qadimiy Ipak yo'lining markazida joylashganligi sababli, BRI da strategik mintaqa hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston uchun BRI tashabbusi iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi muhim omillardan bir bo'ldi. Mustaqilik yillaridan so'ng mamalakat ichki bozorga e'tibor qaratgan bo'lsa, 2016- yildan boshlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida "ochiq iqtisodiyot" siyosati yo'lga qo'yildi.³⁸ Ushbu jarayonda Xitoy bilan hamkorlik aloqalarimiz, ayniqsa, sanoat sohasini modernizatsiya qilish, energetika va texnologiyalarni joriy qilish muhim o'rin tutdi. BRI doirasida tuzulgan shartnomalar va sarmoyalar O'zbekiston iqtisodiyotida import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda eksport hajmini oshirishga katta xizmat qilmoqda. Misol tariqasida, Angren kimyo kompleksi, Jizzax maxsus sanoat zonasi kabi obyektlar Xitoy sarmoyasi asosida ilg'or texnologiyalar asosida tashkil qilindi.

Bugungi kunda O'zbekiston Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" xalqaro tashabbusini faol qo'llab quvvatlab kelmoqda. Ushbu loyiha bugungi kunda mamlakatimiz rivoji uchun, xususan, ushbu tashabbusga a'zo davlatlar bilan ham faol hamkorlikni yo'lga qo'yilganligi O'zbekiston uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Jahon sayyohlik tashkilotidan olingan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, butun dunyo bo'ylab sayyohlar tomonidan sarflangan mablag'larning 20 % i Xitoy Xalq Respublikasiga to'g'ri keladi.³⁹ Bundan ko'rinib turibdiki, Xitoy O'zbekistonni ham jalb qilishi zarur, chunki, yuqorida takidlab o'tganimiz kabi O'zbekiston Markaziy Osiyoning gegografik jihatdan markazida joylashgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi allaqachon "Bir kamar, bir yo'l" loyihasini ikki tomonlama va minatqaviy platformalar orqali ishtirok etishini ta'kidlab o'tgan edi. Bunga qo'shimcha sifatida, Prezidentimizning "Bir kamar, bir yo'l" ikkinchi xalqaro forumi ishida ishtirok etishishi uchun 2019- yil 24-27- aprel kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga qilgan amaliy tashrifi respublikamizning xalqaro maydondagi obro'sini mustahkamlash uchun muhim qadamlar tashlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Forum davomidagi asosiy maqsadlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ilgari surilgan tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan ham qo'llab quvatlanayotganini ham ko'rishimiz mumkin va bu harakatlar O'zbekiston uchun iqtisodiy dastur va loyihalarni ilgari surishda imkoniyat eshiklarini ochdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xitoy Xalq Respublikasiga oliy darajadagi tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi qarorga ko'ra, forumdagi ishtirokchi mamlakatlarning hamkorlik aloqalaridagi

³⁸ Prezident Sh.M. Mirziyoyev nutuqlari va qarorlari (2017-2024- yillar).

³⁹ [Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan](#)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mustahkamlashga qaratilgan ulkan xalqaro platforma “Bir kamar,bir yo‘l ” tashabbusi 2017- 2021- yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi strategik dasturi bilan bo‘g‘liqdir, ya‘ni bu shuni anglatadiki, bu loyiha orqali O‘zbekistonning nafaqat iqtisodiy faoliyati balki sanoat, energetika, infratuzilmalarni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, turizm va ta‘lim sohasi ham gullab yashnaydi degan chuqur ma‘noga egadir. Yuqorida takididlab o‘tganimiz kabi, ushbu sohalarda qo‘shma loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali yangi transport yo‘laklarini ochish, mahalliy mahsulotlar eksportini kengaytirish va respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025- yil bahorgi holatlariga ko‘ra, O‘zbekistonda Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi 3500 dan ortiq korxona ro‘yxatdan o‘tgan, taqqoslash uchun bu ko‘rsatkich 3000 ga yaqin Rossiya va 1900 ga yaqin Turkiya kompaniyalari mavjudligini olishimiz mumkin. Birgina o‘tgan yilning o‘zida bir necha yuzlab yangi qo‘shma korxonalar tashkil qilinganining O‘zbekiston Respublikasini savdo – hamkorlik jihatdan Xitoy Xalq Respublikasi bilan aloqalari kundan kunga mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ushbu loyiha asosida, xorijiy investitsiyalar orasida Xitoy yetakchilik qilmoqda, mamlakatga jalb qilingan investitsiyalar va kreditlarning ko‘p qismini ham Xitoy tashkil qiladi. Misol uchun, agar Xitoy investitsiya hajmini 33 foizini tashkil qilsa, qolgan hajmini 10 foiziga yaqin hissa qo‘shgan keyingi yirik investor Rossiyaning ulushidan uch barobar ko‘pdir. Bu ma‘lumotlarni yanada tahliliy jihatdan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, iqtisodiy sheriklikning asosiy omillari sanoat, energetika, yuqori darajadagi texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi tashkil qiladi. Bu investitsiyalarning O‘zbekistonga ta‘siriga qaraydigan bo‘lsak, energetika sohasida Xitoy sarmoyalari, jumladan elektr energiyasi ishlab chiqarish va ta‘minoti sohasida eng ko‘p sarmoyani tashkil qilishi mumkin. 2013- yildan boshlab Xitoyning yirik kompaniyalari Shanhai Electric va Dongfang Electric O‘zbekistonda bir qator yangi loyihalarni amalga oshirdi. Shu jumladan, ko‘p bora keltirib o‘tilayotgan IES modernizatsiyasi hamda Surxondaryo va Qashqadaro kabi viloyatlarda elektr energiyasi uzatish tarmoqlari shular jumlasidandir. Ushbu loyihalarning katta hajimda amalga oshirilayotganligi ham ichki energiya ta‘minotini yaxshilabgina qolmay, ishlab chiqarishning rivojlanishiga ham o‘z tasirini ko‘rsatmasdan qo‘ymaydi. Umuman olganda, energetika sohasidagi Xitoy investitsiyalari O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, ushbu hamkorlik nafaqat iqtisodiy barqarorlikni taminlabgina qolmasdan o‘zaro savdo va mintaqaviy aloqalarni ham mustahkamlaydi. Endi bu loyihani huquqiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlik xalqaro va milliy me‘yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi. O‘zbekiston 2011- yil 26- oktabrdagi Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o‘rtasida investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi bitimni imzolagan, ushbu hujjat investorlarning teng huquqligini, mulk daxlsizligini va investitsiyalarni majburiy musodara qilinishidan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

himoya qiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolat bo'ldi. Mazkur qonundan investorlar qanday to'liq foydalana olishlari mumkin degan savol tug'uladi. Ushbu qonun orqali ular soliqlardan qisman yoki to'liq ozod qilinishi, nizolar yuzga kelganda esa xalqaro arbitrajga murojaat qilishi huquqiga va ko'plab imtiyozlarga ega bo'la olishlari mumkin ekanligi keltirib o'tilgan ekan. Xitoy investitsiyalarining kundan kunga ortib borayotgani bilan bir qatorda, ayrim huquqiy muammolar ham yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi ya'ni, shartnonma shaffofligi, ekologik standartlarga rioya qilish va davlat xususiy sherikchilikning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga ham ehtiyoji mavjud. Shuning uchun ham O'zbekiston uchun BRI doirasida hamkorlikni milliy huquq tizimi bilan ham muvofiqlashtirish, xalqaro arbitraj amaliyotini tubdan takomillashtirish va investor huquqlarini yanada samarali himoya qilish mexanizmini mustahkamlash masalasi dolzarbdir.

Endi natijalar qismini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ya'ni Xitoy bilan investitsiyalar natijasida qanday loyihalar qancha foyda oldik, bu loyihalar bizga foydaga hal bo'ldimi yokida zararga shularni ko'rib chiqadigan bo'lsak. So'ngi yillardagi tadqiqot natijalari orqali tahlil qiladigan bo'lsak, "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi O'zbekiston uchun iqtisodiy modernizatsiyaning shiddat bilan rivojlanishida va xalqaro investitsiyalarning jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu loyiha orqali Xitoy O'zbekistonning eng yirik strategik hamkorlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Statistika agentligidan olgan ma'lumotlarimizni tahlil qiladigan bo'lsak, bu loyiha ishga tushgandan to' so'ngi yillar ya'ni 2024- yil holatiga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi qariyb 14 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan va Xitoy O'zbekistonning asosiy savdo hamkori sifatida birinchi o'rinni egallagan.⁴⁰ Shuningdek, BRI doirasida amalga oshirilgan qator loyihalar, shu bilan birga energetika va infratuzilma sohasidagilari mamlakat ishlab chiqarish hajmini oshirib, eksport salohiyatini kengaytirganini bilib olishimiz mumkin. Investitsiyalar doirasida yangi korxonalar tashkil qilinib, minglab ishchi o'rinlari yaratilgan. Ma'lumotlar miqtori cheklanganligiga qaramasdan boshqa davlatlar bilan ushbu loyihada faol ishtirokini taqqoslaydigan bo'lsak, xususan, qo'shni davlatlardan biri bo'lgan Qozog'iston BRI doirasida eng yirik xususiy va davlat sarmoyasini jalb qilgan Markaziy Osiyo davlatlaridan biri hisoblanib, Green Finance and Development Center bergan ma'lumotlarga ko'ra, BRI hisoboti so'ngi yillar hisobotiga ko'ra, shu yilning birinchi yarmida Qozog'istonga 23 milliard AQSH dollari atrofida investitsiya kiritigan. Shu bilan birga, aniq ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, O'zbekistonning BRI doirasida loyihalari sezilarli darajada ko'p bo'lsa ham raqamli ko'rsatkichlar Qozog'iston bilan solishtirilganda nisbatan kamroqligini sezishimiz mumkin. OSCE Network

⁴⁰ <https://www.china-briefing.com>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ma'lumotlariga ko'ra, 2013- 2020 yillar oralig'ida O'zbekiston hududida 40 ta loyiha – taxminan 4.5 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, Qozog'istonda nisbatan ko'proq 68 ta loyiha – 36 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan.⁴¹ Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston asosan solishtirma jihatdan sanoat va energetika tarmoqlariga urg'u bergani, Qozog'iston esa asosan transport – logistika va tranzit yo'laklarni ishlab chiqarishga e'tiborini qaratganligi tahmin qilinadi.

Endi erishilgan natijalarga keladigan bo'lsak O'zbekiston Xitoyning Markaziy Osiyodagi eng yirik strategik hamkorlaridan biriga aylandi deb e'tirof etilmoqda. So'ngi yillarda ikki davlat o'rtasida aloqalar sifati va hajmi sezilarli darajada kengayganini guvohi bo'lishimiz mumkin. 2025- yilning birinchi choragidagi holatiga ko'ra, ikki tomonlama savdo hajmi taxminan 15 milliard AQSh dollarini tashkil qilmoqda, bu esa 2017- yildagi ko'rsatgichdan ikki baravar ko'pdir.⁴² Xususan, bu statistik ma'lumotlarni yanada tahlil qiladigan bo'lsak, savdo hajmi O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi 5.8 milliard AQSh dollari deb xabar qilingan. 2024- yil oxiri 2025- yilning birinchi choragidagi holatga ko'ra esa Xitoy kompaniyalari 3.467 milliardni tashkil qilgan ekan. Umumiy investitsiya hajmi va to'liq savdo hajmi 15 mlrd AQSh dollariga yaqinlashgan deb taxmin qilsak bo'ladi. O'zaro savdo aloqalarining kengayishiga O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston" strategiyasi va Xitoyning "Belt and Road Initiative" loyihalari doirasidagi tashabbuslar bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, so'ngi yillarda elektron savdo, logistika, transport yo'laklari kabi sohalarda ham qo'shimcha dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuning bilan birga, Xitoy investitsiyalar orqali O'zbekistonga kirib kelayotgan sarmoyalar iqtisodiyotining bir necha yetakchi sohalarida sezilarli natijalarni ko'rsatmoqda. Xususan, ish o'rinlari yaratish, ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy sarmoyalar bilan bog'liq bo'lgan – 2025- yilda e'lon qilingan loyihalardan biri 2.8 mlrd AQSh dollarini tashkil qilish orqali 50,000 dan ortiq ish o'rnini yaratildi kabi ma'lumotlar keltirilgan. Jahon savdo tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar tufayli xususiy sektorlar yetakchi ish o'rinlari yaratish orqali mahalliy mehnat bozorida o'z faolligini oshirdi deb ta'kidlaydi. Bu ish o'rinlarini yaratish orqali mahalliy aholini faollik darajasiga ham ta'sir o'tkazdi ya'ni, malaka oshirish imkoniyatlari kengaydi va iqtisodiy jihatdan ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda.

Kelgusidagi rejalarga ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak, O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasining BRI loyihasi doirasidagi hamkorligi asosida quydagi yo'nalishlarda, xususan, yashil energetika, raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarish sohasida ham keng islohotlar olib borilishini taxmin qilsak bo'ladi. O'zbekiston va Xitoyning hamkorligi so'nggi yillarda ayniqsa energiya sektorida "yashil" yo'nalishga burildi. CGTN News ning so'ngi ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Buxoro viloyatida Xitoy quruvchilari tomonidan tashkil qilingan shamol stansiyasi yiliga

⁴¹ <https://osce-network.net>

⁴² Chinadaily.com





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

taxminan 3.6 teravatt- soat toza energiya ishlab chiqarishi va CO₂ chiqindisini 1.6 million tonnagacha qisqartirishi kutilmoqda.⁴³ Aynan shu kabi loyihalar orqali nafaqat iqtisodiyotga balki shu bilan birga ekologik toza hudud yaratishga ham hissa qo'shgan bo'lardi.

Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy hamkorlik oldingi yillar bilan solishtirganda sezilarli darajada yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Aynan, "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi orqali O'zbekiston uchun iqtisodiy va savdo aloqalarining kengayishi, balki iqtisodiyotning modernizatsiyasi va globallashuvning chuqur ildiz otishiiga katta hissasini qo'shmoqda. Xitoyning keng ko'lamli investitsiyasi natijasida energetika, sanoat va transport – logistika tarmoqlarini rivojlanishi va islohatlarning amalga oshirishi, shu bilan birga yashil iqtisodiyot va energetika hamda raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida hamkorlik O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'unlashib bormoqda. Biroq, o'zaro hamkorlik jarayonida faqatgina iqtisodiy rivojlanishni o'ylashdan tashqari, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va tashqi qarz xavfini kamaytirishga ham asosiy e'tiborni qaratish zarur va hali hamon dolzarbligicha qolmoqda. Umumiy olib qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi orasidagi o'zaro hamkorlik ikki tomonga ham katta foyda bermoqda va shu bilan birga mamlakatning mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy tizimidagi o'rnini yanada mustahkamlab bormoqda va bu aloqa uzoq muddat davomida ikkala davlatga ham barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [Belt and Road Portal - BRI Official Website](#)
2. Prezident Sh.M. Mirziyoyev nutuqlari va qarorlari (2017-2024- yillar).
3. [Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan](#)
4. <https://www.china-briefing.com/news/navigating-china-uzbekistan-investment-and-trade-opportunities>
5. https://osce-network.net/fileadmin/user_upload/publications/China-BRI-Report-2021
6. [Belt and Road summit galvanizes grit for shaping shared future - Chinadaily.com.](#)
7. <https://news.cgtn.com/news/2025-06-11/China-and-Uzbekistan-s-green-energy-partnership-for-sustainable-growth>
8. Asian Development Bank(n.d.) Study of the Belt and Road Initiative (Project 50141- 001).([Link](#)). (23-29-betlar).
9. China – Briefing (2024) Navigating China – Uzbekistan Investment and Trade Opportunities.(10-15-betlar). ([Link](#)).
10. ITUC – CSI (n.d.) Belt and Road Initiative In Central Asia. ([Link](#)).
11. Jash. A(2024) China's BRI in Central Asia & Its Impact: Uzbekistan Case. F1000Research.(5-10-betlar). ([Link](#)).

⁴³ <https://news.cgtn.com/news/2025>

